



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Qurbanova Aziza Tohirovna

**SamDU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi II bosqich  
magistranti**

**KO'PTILLILIK SHAROITIDA O'ZBEK TILINI DAVLAT TILI  
SIFATIDA O'RGATISHNING AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilini Davlat tili sifatida o'qitish, o'zbek tilidan foydalanuvchilar sonini oshirish hamda umumta'lim maktablarining rus va qardosh tillarda tahsil oluvchi o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatishning amaliy va nazariy jihatlari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'ptillilik, o'zbek tili, Davlat tili sifatida o'qitish,

**Филологический факультет СамГУ**

**Магистрант второго курса Курбонова Азиза Тохировна**

**Важно преподавать узбекский язык как государственный в  
полиязычной среде**

**Аннотация:** В данной статье рассматривается преподавание узбекского, нашего родного языка, имеющего древнюю и богатую историю, в качестве государственного языка, увеличение числа пользователей узбекского языка, а также узбекского языка учащихся общеобразовательных школ, обучающихся на русском и родственных языках и теоретические аспекты преподавания.



**Ключевые слова:** многоязычие, преподавание узбекского языка как государственного.

O‘zbek tilining jamiyatimiz hayotida va xalqaro darajadagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish, ulg‘ayib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘liq joriy etish, O‘zbekistonidagi barcha fuqorolarning tillarini asrash va takomillashtirish, davlat tili asosida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda rejadagi rivojlanish bosqichlarini belgilash hamda yurtimizda o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishda samarali natijalarga erishish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoniga [4] muvofiq:

2020-yildan 2030-yilgacha bo‘lgan muddat oralig‘ida o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasini ishlab chiqish va unga ko‘ra mamlakatimizning barcha soha va yo‘nalishlarida o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish va o‘qitishni keng joriy qilish hamda til imkoniyatlaridan to‘g‘ri va to‘liq foydalanishga erishish; ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning fan tili sifatidagi nufuzini yanada oshirish; davlat tilining soqligini saqlagan holda fuqorolarning nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy pedagogik texnologiyalarga faol integratsiyalashuvini yuksaltirish; davlat tilini sof holatda saqlash, uni boyitish va fuqorolarning nutqiy savodxonligini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va obro‘yini yuksaltirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; mamlakatimizda yashovchi barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay imkoniyatlar yaratishni keng ko‘lamda amalga oshirishni nazarda tutadi.



Ya’ni, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm – fan tili sifatidagi nufuzini oshirish sohasida:

2030-yilgacha respublikamizdagi barcha maktablarida o‘quv davriga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalarida “O‘zbek tili” fanini o‘qitishni amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish; oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili kafedralarini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha esa 140 taga yetkazish;

Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish sohasida:

lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida “O‘zbekiston milliy qomusi” jiddlarini nashr etishni ko‘paytirish; 2020-yilda o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshiruvchi tilshunoslik, atamashunoslik, izohli kabi lug‘atlarni yaratish;

Davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini ta’minalash sohasida:

2025-yilgacha davlat tilida sohaga oid ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqarish, foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030-yilgacha esa ushbu ko‘rsatkichni 25 taga oshirish; dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalari va elektron lug‘atlarni yaratish; xorijlik fuqarolar uchun o‘zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratishni aniq rejalar asosida belgilab olinishi o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini mukammal darajada o‘rgatish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Shuningdek, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish sohasida ham quyidagi masalalar qo‘yildi:

2030-yilgacha xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha oshirish; 2025-yilga qadar “O‘zbek tilining do‘stlari” klublari sonini 30 taga, 2030-yilgacha esa 40 taga yetkazish; xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o‘quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta’minalash, o‘zbek tilini o‘rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish ona tilimizning nufuzini, undan foydalanuvchilar ko‘lamini oshiribgina qolmasdan, balki tilimizga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, o‘zbek tilida erkin



so‘zlashuvchilar sonini oshirishga, muloqot madaniyatini shakllantirishga ham to‘liq xizmat qiladi [4].

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga to‘liq o‘tishni ta’minlash maqsadida “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqib, shu asosida faoliyat yuritish ham ona tilimizga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor namunasidir.

Shu bilan birgalikda quyidagi muhim vazifalar ham belgilab qo‘yildi:

2021-yil aprel oyidan boshlab o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar hamda yosh kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darajasi aniqlanishi hamda mas’ul lavozimlarga tayinlanadigan fuqarolar uchun davlat tilini bilish bo‘yicha daraja sertifikatlari joriy etilishi faqatgina o‘zbek tilida muloqotga kirishuvchilar uchun emas, balki o‘zga tilda so‘zlashuvchi kadrlar uchun ham bir qator ma’suliyatli vazifani yuklaydi. Fanlar akademiyasi innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zbek tilidagi mavjud lug‘atlar asosida uzlucksiz ta’limning barcha turlari uchun quyidagi o‘quv lug‘atlarining yaratilishi, tilimiz so‘z sandig‘idagi bebahohavohirlarni yanada ko‘paytirish uchun foydadan holi bo‘lmaydi. Ular quyidagilardan iborat:

- ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning to‘ldirilgan yangi nashri (kirill va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida);
- “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”;
- “O‘zbek tili sinonimlari lug‘ati”;
- “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”;
- “O‘zbek tili frazeologizmlarining katta izohli lug‘ati”;
- “O‘zbek tili omonimlari lug‘ati”.

Oliy o‘quv yurtlarining filologiya ta’lim yo‘nalishlarida “Kompyuter lingvistikasi”, “Amaliy filologiya” yo‘nalishlarini tashkil qilinishi, respublikamizdag‘i barcha xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi, o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish chora-



tadbirlarining amalga oshirilishi, o‘zga tilda so‘zlashuvchi mamlakatimiz fuqorolari uchun o‘zbek tilida muloqot qilishlari uchun yanada kengroq imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Respublikamiz Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tomonidan qabul qilingan 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan Konsepsiya ko‘ra o‘zbek tilini muntazam boyitib borish, uning sofligini saqlash, aholining davlat tilidagi nutq madaniyatini yuksaltirish borasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

ko‘p jildli “O‘zbekiston milliy qomusi”ni lotin yozuviga assoslangan o‘zbek alifbosida nashrga tayyorlash va chop etish, jadid namoyandalarining boy ma’naviy merosi, hayoti va faoliyatini o‘rganishga oid ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish, o‘zbek tili dialektlari (shevalari) xaritasini yaratish, o‘zbek tilining o‘ziga xos noyob xususiyatlari aks etgan folklor va mumtoz adabiy asarlarni nashrga tayyorlash va chop etish, yoshlar o‘rtasida nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan tanlovlari o‘tkazish, jumladan, “Zulfiyaxonim qizlari”, “Mard o‘g‘lonlar” tanlovlari nomzodlariga *davlat tilini bilishi shartini* kiritish, savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlariga o‘zbekcha nom qo‘yishning normativ-huquqiy asosini shakllantirish kabi muhim vazifalar xalqimiz orasida o‘zbek tilini Davlat tili sifatida e’tirof etish uchun ko‘zlangan aniq maqsadlardan biridir.

Bugungi texnika asrida davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridagi o‘rnini kuchaytirish, zamonaviy dasturiy ishlanmalmalarni yaratishdagi mavqeyini oshirish yo‘nalishida o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish, o‘zbek tilini internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda o‘z o‘rnini egallashini ta’minlash, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish, o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilish, o‘zbek tilidagi matnlar tahririga (WORD matn muharriri) mo‘ljallangan kompyuter dasturlarini yaratish, o‘zbek tilidan jahoning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturini



yaratish, davlat tilida yaratilgan dasturiy ta'minotlarning yagona sertifikatlash va standartlashtirish xizmatini joriy etish va o'zbek tili darslarida kompyuter va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'zga tilda so'zlashuvchilarga o'zbek tilini o'rgatuvchi mashg'ulotlarni o'tish samarali natijalarini beradi.

Davlat tilining xalqaro miqyosdagi ko'lamenti va obro'-e'tiborini oshirish hamda boshqa tillar bilan aloqalarini kengaytirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilgan:

O'zbek tilini xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish, uni o'rganish istagida bo'lgan chet ellik fuqarolarga ko'maklashishga mo'ljallangan o'zbek tilini o'rgatuvchi onlayn platforma tashkil qilish, uning axborot bazasini ta'minlash va muntazam boyitib borish, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarning madaniy va til o'zligini saqlab qolish, ularning o'zbek madaniy an'ana va qadriyatlari ruhida tarbiya topishlariga ko'maklashish, o'zbek milliy madaniy markazlarini badiiy adabiyotlar bilan muntazam ta'minlab borish, xorijiy oliy o'quv yurrtlarida o'zbek tili markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish, xorijda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilari bilan muntazam aloqa o'rnatish va o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish, xorijiy OTMlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash tizimini joriy etish, xorijda o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar, tadqiqotchilar, tarjimonlar bilan muntazam aloqa o'rnatish, ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari huzurida "O'zbek tilining do'stlari" klublarini ko'paytirish, fan va ta'limdagi hamkorlikni kuchaytirish orqali chet ellik yoshlarning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish, xorijda o'zbek tilining xalqaro nufuzi, jozibadorligi va imkoniyatlari haqida ilmiy anjumanlar, davra suhbatlari, muloqot va suhbatlar tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganishni istagan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari, elektron dasturlar ishlab chiqish, turkiy tilli davlatlar bilan hamkorlik jarayonlarini rivojlantirish maqsadida o'zbek tilining qardosh tillar bilan tarjima lug'atlarini hamda ularning mobil ilovalarini yaratishdir.



Davlat tilining mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha fuqarolar uchun birlashtiruvchi vosita sifatidagi o‘rnvi va rolini kuchaytirish borasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi: boshqa millat vakillariga davlat tilini o‘rgatuvchi o‘quvmetodik qo‘llanmalar, ko‘rgazmali materiallar yaratish, o‘qish boshqa tillarda olib boriladigan ta’lim muassasalarining o‘quvchilari uchun davlat teleradiokanallarida o‘zbek va ona tilini hamda boshqa fanlarni o‘rganishga bag‘ishlangan turkum dasturlar tashkil qilish, fuqarolarning ona tilida ta’lim olish imkoniyatini ta’minalash darajasini oshirish, ommaviy axborot vositalari va davriy nashrlarda davlat tilini o‘rganishga bag‘ishlangan turkum dastur va ruknlar tashkil qilish, audiovizual asarlar, badiiy filmlar, adabiyotlarni davlat tilidan boshqa tillarga tarjima qilish ishlarini keng joriy qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘zbek va qoraqalpoq tillarining davlat tili sifatida muomalada bo‘lishiga teng shart-sharoitlarning yaratilishi tilimizda muloqot qiluvchilarning safini yanada kengaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni// Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 64 b. – 20-29-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 64 b. – 31-60-betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni.
4. Holiqberdiyev Q. O‘qish rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilidan dastlabki ta’lim: pfn. Olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1971.
5. U.A.Muhiddinova, J.J.Kokkozova, Bilingvismning bola kognitiv rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishga doir tadqiqotlar. “Science and education” Scientific journal, December Volume 1 Issue 4 (32-38 – betlar).